XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-23-97-10-214-K/25 Ohangaron shahri

Ohangaron shahrining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25 dekabrdagi O‘RQ-1105-son qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1133-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son qonuni hamda Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Ohangaron shahar byudjetining 2026-yilgi daromadlari **70659,93 mln.so‘m** va xarajatlari esa **70659,93 mln.so‘mligi** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Ohangaron shahar byudjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **296,88 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yilgan eng kam miqdori 3-ilovaga muvofiq belgilansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar tasdiqlansin.

- yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutlaq miqdorlari 5-ilovaga muvofiq:

- jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0.7 dan 1.3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar 6-ilovaga muvofiq:

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0.7 dan 1.3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsentlar miqdori 7-ilovaga muvofiq:

Mol-mulk ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1.3 barobargacha oshiruvchi koeffitsentlar miqdori 8-ilovaga muvofiq:

Soliq turlari bo‘yicha ajratmalar me’yori 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Abdusattarov, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (E.Jabbarov), shahar soliq inspeksiyasi (B.Axmedov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga bydjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisoqdiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (J.Abduvaliyev) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Abdusattarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SHOQOSIMOV SADRIDDIN SHOQOSIM O‘G‘LI**

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

t/r	Daromad turlari	Ohangaron shahri
	JAMI	**70 659 930**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3 179 910
2	Foyda solig‘i	2 014 800
3	Aylanmadan olinadigan soliq	4 739 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	8 568 890
	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	
5	Aksiz solig‘i jami	11 902 550
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*11 902 550*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 134 400
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	5 785 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 038 500

10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 291 000
11	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	1 955 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 355 000
13	Davlat boji	896 250
14	Yig‘imlar	262 080
15	Jarimalar	1 427 550
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	110 000

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Ohangaron shahar mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

t/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Ohangaron shahri
Xarajatlar miqdori, jami		**70 659 930**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*19 266 966*
	shundan:	
2	*"Mening maktabim"*	*494 400*
3	Madaniyat bo‘limi	*3 911 851*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*1 858 044*
5	Sport bo‘limi	*4 108 503*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 243 390*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*546 392*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*0*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 169 943*
10	Hokimiyat	*22 504 223*
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*13 193 000*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*517 814*

	Zahira jamg‘armasi	*869 543*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*729 655*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	0
	Axborot-kutubxona markazlari	*729 655*
12	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	14 320 963

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda Ohangaron shahar byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

t/r	**Hududlar bo‘yicha jami**	**2026-yil**
1	Ohangaron shahri	296 883

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsentlar

T/r	Mahalla nomi	**Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun**		**Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun** *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Adolat MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
2	Baxt MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
3	Birlik MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
4	Bo‘ston MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
5	Yangiobod MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
6	Guliston MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
7	Do‘stlik MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
8	Yoshlik MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
9	Iloq MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
1	Qo‘rg‘on MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3

0					
11	Xonobod MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
12	Navbahor MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
13	Namuna MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
14	No‘g‘oyqo‘rg‘on MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
15	Orzu MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
16	Umid MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
17	Shodlik MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3
18	Yangilik MFY	1,00	6 096,9	1,00	548,3

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Hudud nomi	Koeffitsent	Mutloq miqdor *(so‘mda)*
1	Ohangaron shahri	1,00	1 529 000,00

Xalq deputatlari Ohangaron shahri Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha shahar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsentlari

T/r	Hudud nomi	Koeffitsent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dalahovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dalahovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari

1	Ohangaron shahri	1,15	1,15	1,15	1,15	1,00

Xalq deputatlari Ohangaron shahri Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsentlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Hudud nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		yerusti	yerosti	yerusti	yerosti	yerusti	yerosti	yerusti	yerosti
1	Ohangaron shahri	1,15	1,20	1,20	1,20	1,15	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Ohangaron shahri Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsentlar miqdori

T/r	Hudud nomi	**II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i,** ming so‘mda					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2026-yil minimal qiymat	koeffitsiyent	2026-yil stavka	2026-yil minimal qiymat	koeffitsiyent	2026-yil stavka
1	Ohangaron shahri	5,9	1,30	7,67	11,8	1,30	15,34

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-97-10-214-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Soliq turlari bo‘yicha ajratmalar me’yori

Hududlar nomi			**Ohangaron shahri**
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	11%
QQS	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	3%
Foyda solig‘i	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	10%
alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
pivo	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	67%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	88%

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	89%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman (shahar)lar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Aylanmadan soliq	Tuman (shahar)lar byudjetiga		100%
Davlat boji	Tuman (shahar)lar byudjetiga		15%
Jarima	Tuman (shahar)lar byudjetiga		15%
Yig‘imlar	Tuman (shahar)lar byudjetiga		28%